Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

TONI MORRISONNING «BELOVED» VA SAID AHMADNING «UFQ» ASARLARIDA QURBON ONA TIMSOLINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TALQINI

Umida Solievna Raximova*
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
✉ umidarahimova1976@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Toni Morrisonning "Beloved" romani hamda Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasidagi qurbon ona tipi qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda Seti va Jannat xola obrazlarining badiiy vazifasi, farzand taqdiri uchun qabul qilgan qarorlari, ichki psixologik kechinmalari va milliy-ma'naviy xususiyatlari o'rganildi. Tahlil natijalari Amerika va o'zbek adabiyotida qurbon ona tipi umumiy tipologik qonuniyatlarga ega ekanini, biroq uning milliy ifodasi har bir xalqning tarixiy va madaniy tajribasi bilan belgilanishini ko'rsatadi. Mualliflar ona obrazini ideallashtirish emas, balki uni hal etilishi qiyin bo'lgan axloqiy tanlov oldida tasvirlash orqali onalikning psixologik va ma'naviy mohiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar

qiyosiy adabiyotshunoslik, ona obrazi, qurbon ona, tipologiya, Toni Morrison, Said Ahmad, Ufq, psixologizm, milliy poetika.

DOI: 10.5281/zenodo.21743365

Kirish

XX asr Amerika va o'zbek adabiyotida ona obrazi nafaqat oilaviy munosabatlarni ifodalovchi qahramon, balki muayyan tarixiy va ijtimoiy voqelikning badiiy ifodasi sifatida ham shakllanadi. Ayniqsa, qurbon ona tipi farzand taqdiri uchun og'ir axloqiy qaror qabul qilishga majbur bo'lgan ayollar obrazi orqali namoyon bo'ladi. Shu jihatdan Toni Morrisonning **"**Beloved**"** romani hamda Said Ahmadning **"**Ufq**"** trilogiyasi qiyosiy tahlil uchun muhim manba hisoblanadi.

Ona obrazining tipologik ko'rinishlari orasida qurbon ona tipi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tipga mansub qahramonlar farzandiga bo'lgan cheksiz mehri bilan birga, uning taqdiri uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan og'ir qaror qabul qilishga majburligi bilan ajralib turadi. Bunday qaror onaning shaxsiy xohishi yoki manfaatidan kelib chiqmaydi. Aksincha, u muayyan tarixiy, ijtimoiy yoki ma'naviy sharoit ta'sirida yuzaga kelib, qahramonning butun keyingi hayotini belgilab beruvchi fojiaviy voqelikka aylanadi. Shu jihatdan qurbon ona tipining mohiyati qabul qilingan qarorning o'zida emas, balki mazkur qarordan keyin boshlanadigan vijdon dramasi, ruhiy iztirob va psixologik konfliktda namoyon bo'ladi.

Amerika va o'zbek adabiyotida ona obrazininig turli qirralari mavjud bo'lib, ularni tahlil va talqin qilish ona obrazi tipologiyasi yuzasidan muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Bu muammoni ikkita roman ya'ni Toni Morrisonning *"Beloved"*[1] va Said Ahmadning *"Ufq"*[2] trilogiyasidagi misolida o'ranishni maqsad qildik va har birida ona obrazi turlarini tahlil qilish orqali romanlar o'rtasidagi umumiy va farqli tomonlarini kuzatdik. Tadqiq etilayotgan romanlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur asarlarda ona obrazi yagona badiiy qolipda emas, balki bir nechta tiplar orqali tasvirlangan. Ayrim qahramonlar farzandi yo'lida

[1]Morrison, Toni. *Beloved*. New York: Knopf, 1987. P. 281
[2]Саид Аҳмад, Уфқ. Ғафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Т., — 1976, Б. - 686.

o‘z hayoti va shaxsiy manfaatlaridan voz kechuvchi qurbon ona, ayrimlari farzandini har qanday xavf-xatardan asrashga intiluvchi himoyachi ona, yana boshqalari turli sabablarga ko‘ra onalik vazifasini to‘liq bajara olmaydigan zaif ona sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, romanlarda biologik onalik doirasidan tashqari farzand tarbiyasida tarbiya va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash vazifasini birgalikda bajaradigan jamoaviy ona hamda afsonaviy ona obrazlari ham muhim o‘rin tutadi.

Biz tahlilga tortgan asarlarda farzandlari uchun qurbon bo‘lgan ona tipi ifodalangan Toni Morrisonning “*Beloved*” romanidagi Seti hamda Said Ahmadning *“Ufq”* trilogiyasidagi Jannat xola turli milliy adabiyotlarga mansub bo‘lishiga qaramay, mazkur tipning eng yorqin badiiy namunalaridan hisoblanadi. Har ikki qahramon farzandi taqdiri uchun og‘ir qaror qabul qiladi. Biroq mazkur qarorlarni yuzaga keltirgan omillar turlichadir. Setining qarori qullik tizimining g‘ayriinsoniy mohiyati bilan belgilansa, Jannat xolaning tanlovi milliy axloqiy qadriyatlar, vijdon va oilaviy mas’uliyat bilan bog‘liq holda shakllanadi. Shuning uchun mazkur obrazlarni qiyosiy o‘rganish qurbon ona tipining ham umuminsoniy, ham milliy xususiyatlarini ochib berish imkonini yaratadi.

Tahlilga tortilayotgan romanlarda eng ko‘p uchraydigan ona tiplaridan biri *qurbon ona* tipidir. Ushbu tipga mansub qahramonlar uchun farzand manfaati shaxsiy xohish, baxt va hatto hayotdan ham ustun qo‘yiladi. Ular qabul qilgan qarorlar, amalga oshirgan harakatlar va boshdan kechirgan iztiroblar onalikning fidokorlik mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Shu jihatdan qurbon ona obrazi har ikkala romanning g‘oyaviy-kompozitsion qurilishida muhim o‘rin egallaydi. Biroq har bir muallif ushbu tipni o‘ziga xos badiiy yondashuv orqali yaratgan. Said Ahmadning *“Ufq”* asarida Jannat xola obrazi o‘zbek adabiyotidagi qurbon ona tipining milliy xususiyatlarini mujassamlashtirgan murakkab badiiy obrazlardan biridir. Agar Toni Morrison qullik sharoitida onani farzandining hayoti haqida qaror qabul qilishga majbur bo‘lgan qahramon sifatida tasvirlasa, Said Ahmad Jannat xolani farzandining ma’naviy tanazzuli bilan yuzma-yuz qolgan ona sifatida ko‘rsatadi. Shu bois roman markazida farzandning o‘limi emas, balki uning ma’naviy halokatga yuz tutishi tufayli kechadigan ona vijdonining dramasi turadi.

Asosiy qism

Bizningcha, Seti va Jannat xola obrazlarini qiyosiy tahlil qilishda asosiy mezon ularning farzandi taqdiri uchun qabul qilgan qarori emas, balki ushbu qarorning badiiy-psixologik asoslari, vijdon dramasi hamda uning onalik mohiyatiga ko‘rsatgan ta’sirini aniqlashdan iborat. Chunki har ikki yozuvchi ham onani muhokama qilishdan ko‘ra, uni shunday tanlov oldida qoldirgan muhit va inson ruhiyatini tadqiq etadi.

Toni Morrisonning *Beloved* romanida Seti obrazi XX asr Amerika adabiyotidagi qurbon ona tipining eng murakkab va ziddiyatli ifodalaridan biri hisoblanadi. Muallif onalikni an’anaviy mehribonlik yoki g‘amxo‘rlik doirasidagina emas, balki qullik instituti insonni axloqiy jihatdan yechimsiz vaziyatga olib kelgan tarixiy voqelik sifatida talqin qiladi. Shu bois Setining onaligi oddiy axloqiy mezonlar bilan emas, balki qullik sharoitida inson qadri, erkinlik va farzand taqdiri uchun kurash nuqtai nazaridan baholanadi. Morrison romanni 1856 yilda farzandini qullikka qaytarilishdan saqlash maqsadida uni o‘ldirishga uringan tarixiy shaxs Margaret Garner voqeasi asosida yaratgan bo‘lsa-da, tarixiy hodisani oddiy qayta hikoya qilish bilan cheklanmaydi. Yozuvchi mazkur voqeani psixologik, axloqiy va falsafiy jihatdan chuqurlashtirib, onalikning eng og‘ir qurbonlik shaklini badiiy tadqiq etadi.

Romanda Setining o‘z farzandini o‘ldirish haqidagi qarori nafaqat syujet kulminatsiyasi, balki ona obrazining butun ma’naviy mohiyatini ochuvchi markaziy nuqta hisoblanadi. Sababi shundaki, plantatsiya boshqaruvchisi (Skulticher) uning farzandlarini qayta qullikka olib ketish uchun kelganida, Seti bolalari qullik hayotini boshdan kechirmasligi uchun ularning hayotiga o‘zi chek qo‘yishga qaror qiladi. Uning nazdida qullik tirik qolish emas, balki insonlikdan mahrum bo‘lishdir. Shuning uchun ham u o‘limni qullikdan afzal deb biladi. Bu holat onalik muhabbatining eng keskin va fojiali shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Seti o‘z harakatini hech qachon nafrat yoki g‘azab bilan izohlamaydi. Aksincha, u butun roman davomida mazkur qarorni farzandlarini himoya qilish uchun qilingan yagona to‘g‘ri tanlov sifatida qabul qiladi. Uning fikricha, ona o‘z farzandini har qanday yovuzlikdan saqlashi shart, hatto buning uchun o‘z farzandi hayotini qurbon qilishga to‘g‘ri kelsa ham. Shu jihatdan Setining qurbonligi an’anaviy onalik modelidan tubdan farq qiladi. U farzandi uchun o‘z hayotini emas, balki farzandining hayotini qurbon qiladi. Bu esa romanning eng og‘ir

axloqiy paradoksini yuzaga keltiradi. Setining mazkur harakati jamiyat tomonidan mutlaq qabul qilinmaydi. Ayniqsa, Pol Di uning onalik muhabbatini me'yordan oshib ketgan tuyg'u sifatida baholaydi: *"Your love is too thick. Your boys gone you don't know where. One girl dead, the other won't leave the yard."*[3] Ushbu bahoda Setining farzandlariga bo'lgan muhabbati himoya emas, balki halokat manbai sifatida talqin qilinadi. Pol Di uchun ona muhabbati bolani hayotdan mahrum qilish darajasiga yetmasligi lozim. Shuning uchun u Setining harakatini "*too thick love*" - "haddan tashqari kuchli muhabbat" deb ataydi. Bu ibora romanning eng muhim konseptlaridan biri bo'lib, Morrison onalik muhabbati ham muayyan tarixiy sharoitlarda vayronkor tus olishi mumkinligini ko'rsatadi.

Biroq muallif Pol Dining nuqtai nazarini yagona haqiqat sifatida qabul qilmaydi. Roman davomida Seti o'z harakatini qayta-qayta asoslaydi. U farzandlarini o'limga emas, balki qullikdan ham dahshatli hayotga qaytishdan saqlaganiga ishonadi. Demak, romanda asosiy savol "Seti qotilmi?" , balki "qullik onani qanday qaror qabul qilishga majbur qildi?" degan masalaga ko'chadi. Shu tariqa, aybdorlik markazidan ijtimoiy zo'ravonlik markaziga siljish yuz beradi.

Bizningcha, Toni Morrison Seti obrazi orqali onalikni an'anaviy axloqiy mezonlar doirasida emas, balki qullik instituti insonni qanday ma'naviy tanazzul va yechimsiz tanlovlar oldida qoldirgani nuqtai nazaridan talqin qiladi. Shuning uchun Setining harakatini faqat shaxsiy qaror sifatida emas, balki qullik tizimi yuzaga keltirgan tarixiy va ijtimoiy fojianing badiiy oqibati sifatida baholash maqsadga muvofiq. Morrison onani ayblash yoki oqlashni emas, balki uni bunday qaror qabul qilishga majbur etgan g'ayriinsoniy muhitning mohiyatini ochishga intiladi. Shu jihatdan Seti obrazi qurbon ona tipining eng murakkab ko'rinishini namoyon etib, onalik mehrining tarixiy zo'ravonlik sharoitida qanday fojiali mazmun kasb etishini badiiy jihatdan asoslab beradi.

Shunga qaramay, Setining qurbonligi farzandlari tomonidan ham bir xil qabul qilinmaydi. Denver onasini yaxshi ko'rishiga qaramay, uning qilmishini unutolmaydi: *"I love my mother but I know she killed one of her own daughters, and tender as she is with me, I'm scared of her because of it."*[4] Ushbu iqtibos qurbon onalikning ikkinchi fojiasini ochib beradi. Ona farzandini himoya qilish uchun qurbonlik qilgan bo'lsa-da, tirik qolgan farzandlari uchun o'zi qo'rquv manbai bo'lib qoladi. Denver onaning mehrini his qiladi, ammo shu bilan bir vaqtda uning qotillik qilganini ham unuta olmaydi. Demak, qurbonlik ona va farzand o'rtasidagi ishonchni ham izdan chiqaradi. Biloved obrazining qayta paydo bo'lishi ham aynan shu qurbonlikning ma'naviy oqibati sifatida talqin qilinadi. Biloved onasini kechirish uchun emas, balki uning qabul qilgan qarori bilan yuzlashtirish uchun qayta keladi. Shu bois Seti o'tmishdan qutula olmaydi. Uning qurbonligi vaqt o'tishi bilan tugamaydi, balki arvoh shaklida yana hayotga qaytadi. Bizningcha, yozuvchi shu orqali qullik sharoitida qabul qilingan axloqiy qarorlar shaxs ongida umrbod yashashini badiiy jihatdan ko'rsatadi. Shunday qilib, *Beloved* romanida qurbon ona tipi an'anaviy onalik tasavvurlarini tubdan qayta ko'rib chiqadi. Seti o'z farzandlarini sevgani uchun ularni o'limdan emas, balki qullikdan saqlashni tanlaydi. Bu qaror axloqiy jihatdan bahsli bo'lsa-da, roman uning muhabbatini inkor etmaydi. Aksincha, Morrison qullik sharoitida ona muhabbati tirik qolish strategiyasi, erkinlik uchun kurash va insoniy qadr-qimmatni saqlab qolishning eng yuqori qurbonlik shakliga aylanishini ko'rsatadi. Shu jihatdan Seti XX asr Amerika adabiyotida qurbon ona tipining eng murakkab va eng fojiali badiiy timsollaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Romanda Setining ona sifatidagi eng muhim xususiyatlaridan biri uning farzandlarini mulk sifatida emas, inson sifatida ko'rishidadir. Plantatsiya boshqaruvchisi uchun bolalar qullik tizimining bir qismi bo'lsa, Seti uchun ular mustaqil shaxs va erkin insonlardir. Shu sababli u farzandlarini qullikka qaytarishni ularning jismoniy hayotini saqlab qolish deb emas, balki insoniy qadr-qimmatining yo'q qilinishi deb baholaydi. Setining "*I took and put my babies where they'd be safe*"[5] degan so'zlari uning butun onalik falsafasini ifodalaydi. Uning nazdida erkinlikdan mahrum etilgan hayot haqiqiy hayot emas. Shu nuqtai nazardan qaraganda, qizining o'limi Seti uchun mag'lubiyat emas, balki qullik tizimi ustidan qozonilgan ma'naviy g'alaba sifatida anglashiladi. Seti qabul qilgan qarorning axloqiy murakkabligi roman qahramonlarining unga turlicha munosabati orqali ham

[3]Morrison, Toni. *Beloved*. New York: Knopf, 1987. P. – 172.
[4]Morrison, Toni. *Beloved*. New York: Knopf, 1987. P. - 205.
[5]Morrison, Toni. *Beloved*, 1987. P. - 205.

ochib beriladi. Pol Di mazkur harakatni ona muhabbatining haddan tashqari kuchayishi deb baholasa, Denver uning ortidagi mehrni his qilgan holda ham qo‘rquvdan xalos bo‘la olmaydi. Biloved esa onaning o‘tmishdagi qarori bilan uzluksiz yuzlashuvning ramziga aylanadi. Shu tariqa, Morrison bir voqeaga nisbatan yagona bahoni emas, balki turli nuqtai nazarlarni taqdim etadi. Bu esa Seti obrazining psixologik va axloqiy murakkabligini yanada chuqurlashtiradi.

Setining qurbonligi roman davomida tugallangan harakat sifatida emas, balki davom etayotgan ichki jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Bilovedning qaytishi uning ongida o‘tmish hali ham yashayotganini anglatadi. Arvoh obrazi tashqi fantastik voqelikdan ko‘ra ko‘proq Setining vijdoni, aybdorlik hissi va onalik xotirasining badiiy ifodasi vazifasini bajaradi. Demak, qurbonlikning eng og‘ir oqibati jismoniy yo‘qotish emas, balki uning inson ongida umr bo‘yi saqlanib qolishidir. Morrison roman yakunida Setini mutlaq qahramon yoki mutlaq aybdor sifatida baholamaydi. Aksincha, yozuvchi o‘quvchini ona tanlovining axloqiy mohiyati haqida mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. Shu orqali Seti obrazi qurbon ona tipining eng yuqori bosqichini ifodalaydi. Uning qurbonligi shaxsiy baxtdan voz kechish bilan cheklanmaydi; u farzandining hayoti, o‘zining ruhiy xotirjamligi va butun kelajagini qurbon qiladi. Bu qurbonlik esa ona muhabbatining cheksizligi bilan birga uning fojiaviy oqibatlarini ham namoyon etadi.

Shunday qilib, *Beloved* romanida qurbon ona tipi onalikning eng murakkab badiiy modelini yaratadi. Morrison onalikni tabiiy mehr yoki biologik munosabat sifatida emas, balki qullik tizimi insonni olib keladigan axloqiy tanlovlar, psixologik jarohatlar va erkinlik uchun kurash bilan uzviy bog‘liq ijtimoiy-ma’naviy hodisa sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan Seti obrazi Amerika adabiyotida qurbon ona tipining eng chuqur va falsafiy talqinlaridan biri hisoblanadi. Romanda Setining qochish jarayoni ham aynan onalik nuqtai nazaridan tasvirlanadi. U homilador bo‘lishiga, qattiq jarohatlanganiga va jismoniy holsizligiga qaramasdan, farzandini dunyoga keltirish va boshqa farzandlariga yetib borish uchun kurashadi. Muallif ushbu jarayonni qahramonning ichki matonati orqali ochib beradi. Emi Denver yordamida farzandini tug‘ishi nafaqat jismoniy azob, balki onalikning yangi qurbonlik bosqichini anglatadi. Seti uchun tug‘ruq og‘rig‘i qullik azobidan ham ustun emas; chunki uning butun diqqati farzandining hayotini saqlab qolishga qaratilgan.

Qurbon ona tipining yana bir muhim xususiyati Setining o‘zini farzandlaridan ajratmasligida namoyon bo‘ladi. U o‘z shaxsiyatini alohida sub’ekt sifatida emas, balki farzandlari hayotining davomi sifatida qabul qiladi. Shu bois roman davomida uning fikrlari, qarorlari va hatti-harakatlari doimo bolalari bilan bog‘liq holda shakllanadi. Uning uchun onalik ijtimoiy vazifa yoki biologik burch emas, balki shaxsiy mavjudligining asosiy mazmuniga aylanadi.

Setining qurbonligi romanda vaqt o‘tishi bilan ham tugamaydi. Aksincha, qizining ruhi sifatida namoyon bo‘lgan Biloved obrazi mazkur qurbonlikning ma’naviy oqibatlari hali ham davom etayotganini ko‘rsatadi. Biloved faqat o‘lgan qiz emas, balki Setining tugallanmagan xotirasi, aybdorlik hissi va onalik dardining timsoli hisoblanadi. Qizining qaytishi bilan Seti yana o‘tmishga qaytishga, qabul qilgan qarorini qayta-qayta xotirla2shga majbur bo‘ladi. Demak, qurbonlik romanda bir marta sodir bo‘lgan voqea emas, balki umr davom etadigan psixologik holat sifatida talqin qilinadi.

Muallif Setining ichki dunyosidagi ushbu og‘ir yukni quyidagi fikr orqali ham ifodalaydi: *“Love is or it ain’t. Thin love ain’t love at all.”*[6] Ushbu fikr Setining onalik falsafasini ifodalaydi. Uning nazarida haqiqiy ona muhabbati chegara bilmaydi; u yarim yoki shartli bo‘lishi mumkin emas. Agar ona farzandini chin dildan sevsa, uni har qanday azobdan asrashga majbur. Shu bois Seti o‘z harakatini nafrat yoki shafqatsizlik bilan emas, balki muhabbatning eng yuqori nuqtasi sifatida anglaydi. Morrison bu yerda o‘quvchini mazkur qarorni oqlashga emas, balki ona muhabbatining qay darajada fojiaviy tanlovlarga olib kelishi mumkinligi haqida mushohada qilishga undaydi.

Shunisi e’tiborliki, roman yakuniga kelib ham Seti o‘z qaroriga nisbatan mutlaq pushaymonlik yoki mutlaq ishonch holatiga kelmaydi. Uning ongida muhabbat, aybdorlik, dard va xotira bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lib qoladi. Bu holat qurbon ona tipining eng muhim psixologik xususiyatini belgilaydi. Qurbonlik tashqi harakat bilan emas, balki insonning butun hayotini qamrab oladigan ma’naviy yuk sifatida davom etadi.

Shunday qilib, *Beloved* romanida Seti qurbon ona tipining eng yuksak va eng fojiaviy ko‘rinishini ifo-

[6]Morrison, Toni. *Beloved*. New York: Knopf, 1987. - P. - 172

dalaydi. Uning onaligi farzandlarini har qanday sharoitda muhofaza qilishga qaratilgan mutlaq muhabbatga asoslangan. Biroq mazkur muhabbat uni baxtga emas, balki umrbod aybdorlik, ruhiy azob va xotira og‘rig‘iga mahkum etadi. Shu jihatdan, Morrison qurbon ona obrazini ideallashtirmaydi; aksincha, uning ichki ziddiyatlari, axloqiy murakkabligi va inson ruhiyatida qoldirgan chuqur izlarini yuksak badiiy mahorat bilan ochib beradi.

Said Ahmadning *“Ufq”* asarida Jannat xola qurbon ona tipining milliy jihatlarini umumlashtirgan murakkab badiiy obrazdir. Muallif asarning dastlabki sahifalaridayoq Jannat xolaning butun hayoti yagona farzandi bilan chambarchas bog‘langanini ko‘rsatadi: *“Er-xotin jim qolishdi. Shu o‘g‘il ularning bitta-yu bitta farzandlari. Jannat yetti bola tug‘di. Turmadi. Shu bittagina Tursunboy ularning quvonchi bo‘lib o‘sardi... Ona doimo orqasidan yurib u chala qoldirgan ishlarini bajararkan: “Ha, bo‘yniginang uzilmagur, ha, og‘zingdan bol tushmagur”, deb erkalab yurardi.”* [7] Mazkur parchada muallif ona mehrini bevosita tavsiflamaydi. Aksincha, xalqona murojaatlar, erkalash ohangi va maishiy badiiy detallar orqali Jannat xolaning ichki dunyosi ochiladi. Bu yerda “bitta-yu bitta farzand” degan ta’kid kelajakdagi fojianing kompozitsion asosini yaratadi. Chunki butun umidi yagona farzandga bog‘langan onaning keyingi iztirobi oddiy oilaviy muammo emas, balki butun hayotining ma’naviy inqiroziga aylanadi. Mazkur epizod Jannat xola xarakteridagi eng muhim xususiyatni - farzandni hayotining mazmuni sifatida qabul qilishini belgilaydi. Keyingi dramatik voqealarning barchasi aynan shu psixologik asosda rivojlanadi.

Roman voqealari rivojlangan sari Jannat xola farzandining qilmishlari bilan bog‘liq og‘ir haqiqatni tan olishga majbur bo‘ladi. Shu vaqtgacha uni har qanday holatda ham himoya qilishga uringan ona asta-sekin mehrning o‘zi yetarli emasligini anglay boshlaydi. Bu ichki kurash romanning eng kuchli psixologik epizodlaridan birida o‘z ifodasini topadi: *“Jannat xola ko‘p o‘yladi. Bolasining, erining, o‘zining taqdiri to‘g‘risida juda ko‘p o‘yladi... “Bu xilda yashab bo‘lmaydi. Endi bas! Tursunboyni insofga keltirish kerak... Agar Tursunboy ko‘nmasa, uni o‘zim tutib beraman...”* [8]

Ushbu parcha romanning psixologik kulminatsiyasidir. Muallif Jannat xolaning ichki kechinmalarini balandparvoz tasvirlar bilan emas, balki qisqa va sodda jumlalar orqali ochadi. Ayniqsa, “ko‘p o‘yladi” fe’lining takrorlanishi qarorning bir zumlik hissiyot emas, balki uzoq davom etgan vijdoniy kurash mahsuli ekanini anglatadi. Bu yerda Jannat xola ikki xil burch o‘rtasida qoladi. Bir tomonda farzandini har qanday jazodan asrash istagi, ikkinchi tomonda esa uning qilmishlarini yashirish yanada kattaroq ma’naviy halokatga olib kelishini anglash. Shu tariqa ona mehri vijdon va adolat talablari bilan to‘qnashadi. Fikrimizcha, mazkur epizod Jannat xolani qurbon ona tipining milliy namunasi sifatida shakllantiradi. Chunki u farzandidan voz kechmaydi, balki uni insof va haqiqat yo‘liga qaytarish uchun eng og‘ir onalik qarorini qabul qiladi.

Jannat xola bilan Seti o‘rtasidagi asosiy tipologik mushtaraklik har ikkisining farzand taqdiri uchun og‘ir qaror qabul qilishida namoyon bo‘ladi. Biroq mazkur qarorlarning badiiy mohiyati milliy muhit ta’sirida farqlanadi. Seti uchun qullik farzand hayotidan ham dahshatli voqelik bo‘lgani sababli u jismoniy halokatni ma’naviy qullikdan ustun qo‘yadi. Jannat xola esa farzandini jinoyatdan asrash uchun uni qonundan yashirishni emas, balki qilmishiga javob berishga undashni ma’qul ko‘radi. Shu jihatdan Jannat xolaning qarori o‘zbek xalqining adolat, vijdon va oila sha’ni haqidagi milliy qarashlari bilan uyg‘unlashadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Jannat xola obrazidagi fojia farzandni yo‘qotish bilan emas, balki uning ma’naviy jihatdan o‘zgarib ketganini ko‘rish bilan bog‘liq. Shuning uchun ham mazkur obrazda psixologik dramatizm tashqi voqealardan ko‘ra ichki kechinmalar orqali ochiladi. Bizningcha, Said Ahmad Jannat xola obrazi orqali haqiqiy ona farzandini har qanday holatda oqlaydigan emas, balki uning ma’naviy kamolotini o‘z shaxsiy baxtidan ham ustun qo‘yadigan inson ekanini badiiy jihatdan asoslaydi.

Toni Morrisonning *Beloved* romanidagi Seti hamda Said Ahmadning *Ufq* trilogiyasidagi Jannat xola turli milliy, madaniy va tarixiy muhitda yaratilgan bo‘lishiga qaramay, qurbon ona tipining muhim tipologik xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Har ikki asarda ham ona obrazi an’anaviy mehribonlik yoki fidoyilik doirasida emas, balki farzand taqdiri uchun qabul qilingan og‘ir qaror orqali ochiladi. Shu jihatdan mazkur obrazlarning tipologik mushtarakligi tashqi voqealarda emas, balki ularning ma’naviy tanlovida namoyon bo‘ladi.

[7] Саид Аҳмад, *Уфқ*,, Ғафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриети. Тошкент — 1976, Б. -13
[8] Саид Аҳмад, *Уфқ*, 1976, Б. -394

Har ikki romanning kompozitsion markazida ona qabul qilgan hal qiluvchi qaror turadi. Biroq ushbu qarorning sabablari turlicha. Seti qullik tizimining g‘ayriinsoniy mohiyati tufayli farzandini jismoniy o‘lim orqali ma’naviy qullikdan asrashga intiladi. Jannat xola esa farzandining jinoiy yo‘ldan qaytishi uchun uni adolatdan yashirishni emas, aksincha, haqiqat bilan yuzlashtirishni tanlaydi.

Shunday qilib, har ikki qahramon uchun og‘ir qaror farzandga qarshi chiqish emas, balki uning kelajagini saqlab qolishga qaratilgan onalik mas’uliyatining ifodasi hisoblanadi. Bu holat qurbon ona tipining umumiy tipologik belgisini tashkil etadi. Fikrimizcha, mazkur obrazlarning umumiyligi qarorning shaklida emas, balki qarorning ma’naviy mohiyatida namoyon bo‘ladi. Har ikki ona ham shaxsiy baxtini emas, farzandining taqdirini ustun qo‘yadi.

Seti va Jannat xolani birlashtiruvchi ikkinchi muhim xususiyat qabul qilingan qarordan keyin boshlanadigan vijdon dramasidir. Morrison romanning keyingi qismlarida Setining ichki iztirobini Beloved obrazi orqali ramziylashtirsa, Said Ahmad Jannat xolaning kechinmalarini realistik psixologizm vositalari yordamida ochadi. Birinchi holda aybdorlik hissi tashqi ramziy obrazga aylansa, ikkinchi holda u ichki mulohaza va sukut orqali ifodalanadi. Shu jihatdan ikki romanning poetik tizimi turlicha bo‘lsa-da, ularning psixologik asosi mushtarakdir. Har ikki asarda ham voqeaning haqiqiy dramatizmi qabul qilingan qarordan keyin boshlanadi. Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra, qurbon ona tipining eng muhim belgisi farzand uchun qabul qilingan qaror emas, balki onaning ana shu qaror bilan yashashga mahkum bo‘lishidir.

Mazkur ikki obraz o‘rtasidagi asosiy farq ularning milliy badiiy konsepsiyasi bilan belgilanadi. *Beloved* romanida Seti shaxsiy fojiasi orqali Amerika tarixidagi qullik institutining umummilliy fojiasini ifoda etadi. Shu bois qahramonning ichki dramasi tarixiy xotira bilan uzviy bog‘langan. *Ufq* romanida esa Jannat xola obrazi o‘zbek xalqining oila, vijdon, or-nomus va adolat haqidagi milliy tasavvurlarini ifoda etadi. Bu yerda fojia tarixiy tizimdan emas, balki ma’naviy qadriyatlar bilan shaxsiy mehr o‘rtasidagi ziddiyatdan kelib chiqadi. Demak, Seti va Jannat xola bir xil tipologik modelga mansub bo‘lsa-da, ularning milliy badiiy vazifasi bir-biridan farq qiladi. Bu esa qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Toni Morrison ham, Said Ahmad ham ona obrazini ideallashtirmaydi. Ular ona qahramonlarini mutlaq haq yoki mutlaq nohaq sifatida ko‘rsatishdan voz kechadi. Aksincha, har ikki yozuvchi kitobxonni ona qabul qilgan qarorni emas, balki ana shu qarorni yuzaga keltirgan ijtimoiy va ma’naviy omillarni anglashga undaydi. Bu jihatdan qurbon ona tipi muayyan shaxsning emas, balki jamiyatning ma’naviy holatini baholash mezoniga aylanadi. Ona taqdiri orqali mualliflar insonni yechimsiz tanlov oldida qoldirgan muhitni fosh etadi. Aynan shu jihat Seti va Jannat xola obrazlarini jahon adabiyotidagi qurbon ona tipining barqaror namunasi sifatida baholash imkonini beradi.

Toni Morrisonning *Beloved* va Said Ahmadning *Ufq* romanining qiyosiy tipologik tahlili Amerika va o‘zbek adabiyotida qurbon ona tipi umumiy badiiy qonuniyatlar asosida shakllanganini ko‘rsatdi. Har ikki asarda ham ona obrazining fojiasi farzandga bo‘lgan mehrning yetishmasligi bilan emas, balki uning taqdiri uchun qabul qilingan og‘ir axloqiy qaror bilan belgilanadi. Shu jihatdan qurbon ona tipining asosiy belgisi onaning shaxsiy baxti yoki hissiyotidan voz kechishi emas, balki farzand kelajagi uchun o‘z vijdoni bilan murosasiz kurashga kirishishida namoyon bo‘ladi.

Qiyosiy tahlil natijalariga ko‘ra, Seti va Jannat xola obrazlarini birlashtiruvchi asosiy tipologik xususiyat farzand taqdiri uchun qabul qilingan qarorning keyinchalik chuqur psixologik konflikt va vijdon dramasiga aylanishidir. Har ikki muallif ham voqealar dramatizmini tashqi harakatlarda emas, balki qahramonlarning ichki ruhiy kechinmalari orqali ochib beradi. Shuning uchun mazkur asarlarda onalik faqat biologik yoki oilaviy munosabat sifatida emas, balki insonning eng og‘ir ma’naviy sinovi sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, tahlil har ikki obrazning milliy o‘ziga xosligini ham ochib berdi. *Beloved* romanida Setining fojiasi qullik institutining g‘ayriinsoniy mohiyati bilan bog‘liq bo‘lib, o2nalik tarixi Amerika jamiyatining tarixiy xotirasi bilan uyg‘unlashadi. *Ufq* romanida esa Jannat xola obrazi o‘zbek xalqining vijdon, or-nomus, oila sha’ni va adolat haqidagi milliy qarashlari asosida shakllangan. Shu sababli har ikki qahramon bir xil tipologik modelga mansub bo‘lsa-da, ularning badiiy vazifasi turli milliy-ma’naviy muhit ta’sirida namoyon bo‘ladi.

Mualliflarning poetik yondashuvida ham o‘ziga xoslik kuzatiladi. Toni Morrison qurbon ona ruhiyatini ramziy obrazlar, xotiralar va psixologik parchalanish orqali tasvirlasa, Said Ahmad realistik tasvir, xalqona nutq

va hayotiy badiiy detallar vositasida ochib beradi. Biroq har ikki yozuvchining badiiy maqsadi mushtarak: ona obrazini ideallashtirish emas, balki uni hal etilishi qiyin bo‘lgan axloqiy tanlov oldida tasvirlashdir. Bizningcha, mazkur qiyosiy tahlil Amerika va o‘zbek adabiyotida qurbon ona tipi milliy tafovutlarga qaramay umuminsoniy badiiy fenomen sifatida shakllanganini tasdiqlaydi. Ona obrazining tipologik mushtarakligi tashqi voqealar yoki syujet o‘xshashligida emas, balki farzand taqdiri uchun qabul qilingan og‘ir qaror, uning oqibatida yuzaga kelgan vijdon dramasi hamda inson ruhiyatida kechadigan psixologik konfliktning badiiy talqinida namoyon bo‘ladi. Aynan shu jihat mazkur obrazlarni jahon adabiyotidagi qurbon ona tipining barqaror namunasi sifatida baholash imkonini beradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari Toni Morrisonning «Beloved» hamda Said Ahmadning «Ufq» asarlarida qurbon ona tipi umumiy tipologik asoslarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Har ikki asarda ham ona farzandi taqdiri uchun og‘ir axloqiy qaror qabul qiladi va aynan shu qaror uning keyingi hayotida chuqur psixologik konflikt hamda vijdon dramasini yuzaga keltiradi. Biroq ushbu qurbonlikning milliy talqini turlichadir: Seti obrazida onalik qullik tizimiga qarshi ma’naviy qarshilik sifatida namoyon bo‘lsa, Jannat xola obrazida u milliy qadriyatlar, vijdon, or-nomus va oila mas’uliyati bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Bu esa qurbon ona tipining umuminsoniy mohiyati saqlangan holda har bir xalqning milliy tafakkuri asosida o‘ziga xos badiiy mazmun kasb etishini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Morrison, T. *Beloved*. New York: Alfred A. Knopf, 1987.
2. Said Ahmad. Ufq. Trilogiya. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
3. Rich, A. *Of Woman Born: Motherhood as Experience and Institution*. New York: W.W. Norton, 1976.
4. Chodorow, N. *The Reproduction of Mothering*. Berkeley: University of California Press, 1978.
5. Collins, P. H. *Black Feminist Thought*. New York: Routledge, 2000.
6. Horvitz, D. *Literary Trauma and Motherhood in Contemporary Fiction*. Albany: SUNY Press.
7. Bloom, H. *Toni Morrison's Beloved*. New York: Chelsea House Publishers.
8. Eagleton, T. *Literary Theory: An Introduction*. Oxford: Blackwell, 2008.
9. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
10. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2018.